

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

“OSIM” VA “PADARKUSH” ASARLARIDA TA’LIM VA YOSHLARGA
DOIR QARASHLAR¹¹

Muhammed İkbâl GÜLER

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Ondokuz Mayis universiteti

E-mail: mikbal.guler@omu.edu.tr

ORCID ID: 0000-0002-8315-3998

Cennet GÜLER

O‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

E-mail: cennetguler25@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-8475-8959

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turk-Isлом dunyosi duch kelgan ijtimoiy-siyosiy inqirozlar davrida yashagan ikki buyuk mutafakkir – Mehmed Okif Erso‘y va Mahmudxo‘ja Behbudiyning maorif hamda yoshlar masalasiga doir qarashlarini qiyosiy tahlil etadi. Har ikki ziyoli ham mustamlakachilik va ijtimoiy tanazzulning asosiy sababini jaholatda ko‘rib, najot yo‘li sifatida G‘arb fanlari va milliy-ma‘naviy qadriyatlar uyg‘unligiga asoslangan ta‘lim islohotini ilgari surganlar.

Maqolada Mehmed Okifning “Safahot” kulliyotidagi “Osim” bo‘limida tasvirlangan ideal avlod modeli bilan Behbudiyning “Padarkush” dramasiidagi jaholat qurboni bo‘lgan yoshlar taqdiri qiyoslanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Okif “Osim” orqali “ma‘rifat va fazilat” sintezini taklif etib, millatning kelajagini qayta “insho” etishni maqsad qilgan bo‘lsa, Behbudiy “Padarkush” orqali jaholatning fojiaiy yakunidan jamiyatni keskin “ogohlantirish”ni ko‘zlagan. Xulosa o‘rnida, Turk dunyosining istiqboli uchun Toshmurod kabi g‘aflatda emas, balki Osim kabi ilm-ma‘rifatli bo‘lish zarurati asoslanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Mehmed Okif,
Mahmudxo‘ja
Behbudiy, ta‘lim,
yoshlar, Padarkush,
Osim.

Received: March 31, 2026

Accepted: April 2, 2026

Available online: May 10,
2026

¹¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Muhammed İkbâl G., Cennet G. “Osim” va “Padarkush” asarlarida ta‘lim va yoshlarga doir qarashlar // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 115-126.

EDUCATION AND YOUTH VIEWS IN THE WORKS "OSIM" AND "PADARKUSH"

Muhammed İkbâl GÜLER

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,

Associate Professor

Uzbekistan State World Languages University,

Ondokuz Mayis University

Tashkent, Uzbekistan – Samsun, Türkiye

E-mail: mikbal.guler@omu.edu.tr

ORCID ID: 0000-0002-8315-3998

Cennet GÜLER

Lecturer

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: cennetguler25@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-8475-8959

ABSTRACT

This research paper presents a comparative analysis of the views on education and youth of two great thinkers, Mehmed Akif Ersoy and Mahmudhoca Behbûdî, who lived during the socio-political crises faced by the Turco-Islamic world in the late 19th and early 20th centuries. Both intellectuals identified ignorance as the primary cause of colonialism and social decline, advocating for an educational reform based on the synthesis of Western sciences and national-spiritual values as the path to salvation. The article compares the ideal generation model depicted in the “Osim” section of Mehmed Akif’s Safahat with the fate of the youth who fell victim to ignorance in Behbudi’s drama Pederkush. The analyses demonstrate that while Akif aimed to “reconstruct” the nation’s future by proposing a synthesis of “knowledge and virtue” through “Osim”, Behbudi intended to strictly “warn” society about the tragic consequences of ignorance through “Pederkush”. In conclusion, the necessity of being knowledgeable and enlightened like Osim, rather than being in a state of heedlessness like Toshmurod, is substantiated for the prosperous future of the Turkic world.

KEYWORDS

Mehmed Akif,
Mahmudhoca Behbudi,
Education, Youth, Pederkush,
Osim.

**ВЗГЛЯДЫ НА ОБРАЗОВАНИЕ И МОЛОДЁЖЬ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ
"ОСИМ" И "ПАДАРКУШ"****Мухаммед Икбал ГЮЛЕР**

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Узбекский государственный университет мировых языков,
университет Ондокуз Майыс
Ташкент, Узбекистан – Самсун, Турция
E-mail: mikbal.guler@omu.edu.tr
ORCID ID: 0000-0002-8315-3998

Дженнет ГЮЛЕР

Преподаватель
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан
E-mail: cennetguler25@gmail.com
ORCID ID: 0000-0001-8475-8959

АННОТАЦИЯ

Данное исследование представляет собой сравнительный анализ взглядов на образование и молодежь двух великих мыслителей – Мехмеда Акифа Эрсоя и Махмудходжи Бехбуди, живших в период социально-политических кризисов, с которыми столкнулся тюрко-исламский мир в конце XIX - начале XX века. Оба интеллектуала видели главную причину колониализма и социального упадка в невежестве, выдвигая в качестве пути к спасению реформу образования, основанную на синтезе западных наук и национально-духовных ценностей. В статье сравнивается модель идеального поколения, описанная в разделе «Асым» сборника «Сафахат» Мехмеда Акифа, с судьбой молодежи, ставшей жертвой невежества, в драме Бехбуди «Падаркуш». Анализ показывает, что если Акиф, предлагая в «Асыме» синтез «знания и добродетели», стремился заново «построить» будущее нации, то Бехбуди через «Падаркуш» намеревался строго «предостеречь» общество от невежества и его трагических последствий. В заключение обосновывается необходимость для будущего тюркского мира быть просвещенным и образованным, как Асым, а не пребывать в неведении, как Ташмурад.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Мехмед Акиф,
Махмудходжа Бехбуди,
образование, молодежь,
Падаркуш, Асым.

KIRISH

XIX asrning soʻnggi choragi va XX asrning birinchi yarmi Turk-islom jugʻrofiyasi uchun nafaqat harbiy magʻlubiyatlar, balki ayni paytda chuqur siyosiy va ijtimoiy parokandalik (inhibit) kechirilgan buhronli davrdir. Gʻarb sivilizatsiyasining texnik va ilmiy ustunligi qarshisida larzaga kelgan Islom olamida munavvarlar, ushbu inqirozdan chiqishning yagona strategik kaliti sifatida “maorif”ni tashxis qildilar. Mazkur tarixiy kesimda jaholat; shunchaki bir maʼlumot yetishmovchiligi oʻlaroq emas, balki ijtimoiy tanazzulning, mustamlakachilik moyilliklarining va axloqiy emirilishning asosiy sababi sifatida talqin qilingan. Islom dunyosining taraqqiyot izlanishlari, bir tomondan anʼanaviy taʼlim muassasalarining islohotini muhokamaga ochgan boʻlsa, boshqa tomondan Gʻarbning fani bilan milliy-maʼnaviy qadriyatlarni sintez qiluvchi oʻziga xos inson modelini barpo etishni maqsad qildi.

Ushbu kontekstda, Usmonli davlatining soʻnggi damlari va Jumhuriyatning tashkil topish iztiroblarini boshidan kechirgan Mehmed Okif Ersoʻy (1873-1936) hamda Turkiston hududida jadidchilik mashʼalasini yoqqan Mahmudxoʻja Behbudiy (1875-1919), jaholatga qarshi yalpi istiqloq kurashining peshvolari sifatida namoyon boʻldilar. Har ikkala mutafakkir ham oʻz jamiyatlari duch kelgan “zillat” va “parokandalik”ning asosiy sababini taʼlimdagi yetishmovchilikda deb bilganlar; najotning faqatgina aql, imon va aniq fanlar uygʻunlashtirilgan islohot harakati bilan mumkin boʻlishini himoya qilganlar.

Mazkur tadqiqotda avvalo bir-biriga yaqin davrlarda yashagan Mehmed Okif Ersoʻy va Mahmudxoʻja Behbudiyning hayot yoʻllari haqida maʼlumot beriladi, soʻngra Mehmed Okifning sheʼrlarini jamlagan “Safahot” asaridagi “Osim” boʻlimi hamda Mahmudxoʻja Behbudiyning teatr matni sifatida yozgan “Padarkush” asari va ushbu asarlarning mazmun-mohiyati haqida toʻxtalib oʻtiladi. Tadqiqot yakunida har ikki shaxsning biografik fonidan kelib chiqqan holda; bir avlodni insho etish idealini aks ettiruvchi “Osim” va jaholatning fojiaiy oqibatlaridan ogohlantiruvchi “Padarkush” asarlari orqali taʼlim va yoshlarga doir qiyosiy tahlil taqdim etiladi.

ASOSIY QISM

Mehmed Okif Ersoʻy: Shoir, Munavvar va Amaliyot Arbobi. Mehmed Okif Ersoʻy 1873-yilda Istanbulning Fotih tumanidagi Sariguzal mahallasida dunyoga kelgan. Otasi Ipekli Tohir afandi, onasi esa buxorolik Emine Sherife xonimdir. Taʼlimni mahalla maktabida boshlagan, Fotih markaziy rushdiyasi va Mulkiya idodiysini tamomlagan. Otasining vafotidan soʻng hayotga erta qadam qoʻyish maqsadida Veterinariya (Baytorlik) va Qishloq xoʻjaligi (Ziroat maktabi) maktabiga oʻtgan va 1893-yilda oʻqishni birinchilik bilan bitirgan; mehnat faoliyati davomida Anadolu, Rumeli va Arabiston hududlarini yaqindan tanish imkoniga ega boʻlgan. Oʻqishni bitirgach, yigirma yil davomida Qishloq xoʻjaligi vazirligida veterinariya

inspektori yordamchisi va mudir yordamchisi bo‘lib ishlagan, turli maktablarda adabiyot va kitobat darslarini bergan.

Ikkinchi Mashrutiyat bilan birga “Siroti Mustaqim” (keyinchalik “Sebilurrashod”) jurnalida yozuvchilik faoliyatini faol boshlagan. Birinchi jahon urushi yillarida “Tashkiloti Maxsusa” nomidan Berlinga va Arabistonga (Najd) xizmat safari bilan borgan. 1920-yilda Milliy kurashga qo‘shilish uchun Anadoluga o‘tgan, Burdur deputati sifatida Majlisga kirgan va va‘zlari bilan xalqni qarshilik ko‘rsatishga chaqirgan. 1921-yil 12-martda yozgan “Istiqlol marshi” milliy madhiya sifatida qabul qilingan. 1925–1936-yillar oralig‘ida Misrda yashab, Qur‘on tarjimai bilan shug‘ullangan va turk tili darslarini bergan. Kasalligi tufayli Istanbulga qaytgan shoir 1936-yil 27-dekabrda vafot etgan va Edirnekapi shahidlar qabristoniga dafn etilgan.

Okif kamolot davri she‘rlarini yetti kitobdan iborat “Safahot” kulliyotida jamlagan. Bu kitoblar quyidagilardir:

- ❖ Safahot (1911);
- ❖ Sulaymoniya minbarida (1912);
- ❖ Haq ovozlari (1913);
- ❖ Fotih minbarida (1914);
- ❖ Xotiralar (1917);
- ❖ Osim (1924);
- ❖ Soyalar (1933).

Mehmed Okif qalamini millat va mamlakat masalalariga bag‘ishlagan “ijtimoiy” va “realist” shoirdir. U o‘z she‘riyatida jamiyat iztiroblarini in‘ikos ettirish bilan bir qatorda, muammolarning yechim yo‘llarini taklif etgan vijdonli ma‘rifatparvar pozitsiyasini namoyon etgan. Keng tarqalgan qarashlardan farqli o‘laroq, ijtimoiy masalalarni yoritishda san‘at va estetikadan voz kechmagan; turk tilini har qanday tuyg‘u va fikrni ifodalay oladigan darajadagi mahorat va nozik did bilan qo‘llagan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy: Turkiston Jadidchiligining Peshvosi. Muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiy, 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. U aslzoda oilaga mansub bo‘lib, otasi turkistonlik Behbuxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘lidir. Ilk ta‘limni tog‘alari Qozi Muhammad Siddiq va Mulla Odildan olgan; arab tili sarf va nahvi, mantiq, huquq va matematikani o‘rgangan. Samarqand va Buxoro madrasalarida yaxshi ta‘lim olib, qozilik va muftiylik darajalariga ko‘tarilgan. O‘n sakkiz yoshida qozilik idorasida kotib bo‘lib ish boshlagan Behbudiy, 1899-yilda chiqqan Haj safari (Istanbul, Misr, Hijoz) davomida Islom dunyosidagi ta‘lim islohotlarini kuzatgan va Turkistonga qaytgach “Usuli jadid” (Yangi uslub) maktablarini tashkil qilgan.

“Samarqand” gazetasi va “Oyna” jurnalini nashr etib, xalqni ma’rifatli qilishga intilgan, mustamlakachiliga qarshi kurashgan. Siyosiy maydonda ham faol bo‘lgan Behbudiy 1917-yilda e’lon qilingan Turkiston muxtoriyatining asoschilaridan biri bo‘lgan. Bolsheviklar inqilobidan keyingi tartibsizliklar davrida, 1919-yil 25-martda Qarshi shahrida Buxoro amiri amaldorlari tomonidan qo‘lga olinib, qatl etilgan (Şuayip Karakaş, 2003, 131-176).

Behbudiyning eng muhim san’at asari 1911-yilda yozilgan va 1913-yilda chop etilgan “Padarkush” (Ota qotili) dramasidir. Ushbu asar butun Turkistonda turkiy tilda yozilgan ilk dramatik asar hisoblanadi. Bundan tashqari, “Kitobul atfol”, “Risolai asbobi savod”, “Muxtasar tarixi Islom”, “Amaliyoti Islom” va geografiya kitoblari kabi ta’limiy asarlar yozgan. Behbudiy san’atni, xususan teatrni “millat istiqboli uchun eng keng ta’sirli qurollardan biri” deb bilgan. Uning fikricha, teatr ko‘ngilochar yoki “masqarabozlik” joyi emas, balki “ibratxona”dir. San’atning maqsadi xalqni o‘qitish, zararli odatlarni ko‘rsatish va jamiyatni tarbiyalashdir. Asarlarning odob doirasida sahnalashtirilishi kerakligini himoya qilgan va teatrni o‘z ideallarini yoyish vositasi sifatida qo‘llagan.

Mehmed Okifning “Osim” asari haqida. “Safahot” kulliyotining oltinchi kitobi bo‘lgan “Osim” Mehmed Okifning eng yetuk asari sanaladi. Asar 1919-yil sentyabrdan 1924-yil avgustgacha “Sebilurrashod” jurnalida qismlar holida chop etilgan, kitob holidayi ilk nashri esa 1924-yilda amalga oshirilgan. Asar she’riy sahna asari tarzida kompozitsion shaklga ega bo‘lib, dialogik nutqqa asoslangan. Matn Xojazoda bilan Ko‘sa Imom o‘rtasidagi uzoq she’riy muloqot (mushoira) ustiga qurilgan. Voqea joyi urush va yo‘qchilik soyasidagi bir uydur; tashqaridagi ijtimoiy tanazzul (qimor, ichkilik, qora bozor) muloqotlar orqali ichkariga ko‘chadi. Asardagi qahramonlarning aksariyati real hayotdan olingan:

Xojazoda: Ushbu qahramon Hoja Tohir afandining o‘g‘li Mehmed Okif Erso‘yning o‘zidir.

Ko‘sa Imom: Hayotda Okifning otasi Tohir afandining shogirdi bo‘lgan bosniyalik Ali Shavkiy hojadir. Aslida hech qachon uylanmagan bo‘lsa-da, badiiy asarda Osimning otasi sifatida ko‘rsatilgan.

Emin: Xojazodaning (Okifning) haqiqiy hayotdagi o‘g‘lidir. Asardagi roli cheklangan.

Osim: Ko‘sa Imomning o‘g‘li deb tanishtirilgan xayoliy qahramondir. U o‘qishini tashlab Chanoqqal’aga yugurgan fidoyi yoshlarni va Okifning “kelajak” tasavvurini ifodalaydi.

Malak: Osimning singlisi sifatida tasvirlangan, onasiz uyning boshqaruvini ta’minlovchi yordamchi qahramon (Muhammed I. G., 2021, 83-97; Mehmet D., 2014, 3-9).

Voqealar Birinchi jahon urushi yillarida, Fotih yong‘inidan oldingi davrda Xojazodaning (Okifning) Sariguzaldagi uyida bo‘lib o‘tadi. Hikoya 70 yoshli, iztirobga to‘la Ko‘sa Imomning o‘g‘li Osim bilan birga Xojazodaning eshigini qoqishi bilan boshlanadi. Ikki eski do‘st o‘rtasida chuqur suhbat boshlanadi. Ushbu suhbat davomida “sening madrasang-mening maktabim” bahsi hamda Sulton Abdulhamid hamda Ittihad va Taraqqiy davrlarining sarhisobi qilinadi. Suhbat asnosida mamlakat ahvoriga doir qissalar aytiladi. “Egarchi va eshaklar” hikoyasida boshqaruvdagi o‘zgarishlar ommaning zimmasidagi og‘ir yuk va iztiroblarni o‘zgartirmasligi, balki asosiy masala chinakam “inson bo‘lish” (odamiylik) ekanligi uqtiriladi.

*“Nasihatim senga: Bulmag‘ur ishdan nari tur,
Odamiylik yo‘li qayda bo‘lsa, topib o‘sha yo‘lga kir.
Insonmisan: abadiyan jahonda hursan, ozodsan, bas;
Tizgin taqib seni bir kimsa hech qachon sudrab yurmas.
Odam emasmisan, o‘g‘lim, moyilliging bor egar silarga,
Aslo sezdirma bo‘yin egganing egarchilarga”* (Erso‘y, 2022, 333).

Shuningdek, “Mestonli tog‘a” qissasi bilan ilmi bo‘lsa-da, axloqdan mahrum o‘qituvchilarning qishloq ahli tomonidan haydalihi hikoya qilinib, “avval axloq, so‘ngra ilm” tamoyili ishlanadi.

Asarning davomida Ko‘sa Imom o‘g‘li Osimdan shikoyat qiladi. Osim jismonan “ulug‘vor haykal”dek kuchli, polvonqomat, biroq ruhan juda nozik yoshdir. U adolatsizlikka chiday olmaydi; Ramazonda ochiqchasiga tamaki chekuvchilarga, millat och qolgan bir paytda bazm uyushtiruvchilarga jismoniy chora ko‘radi, qimorbozlarni tutadi. Bundan ham o‘tib, Osim inqilob qilish maqsadida Bobioliga bostirib kirish niyatida edi. Otasi bu holatdan xavotirda va Xojazodadan yordam so‘raydi. Suhbat davomida Osim avlodining Chanoqqal’a janglaridagi qahramonliklariga to‘xtalib o‘tiladi. Mashhur “Chanoqqal’a shahidlariga” bo‘limi shu qismda joy olgan bo‘lib, Osim avlodi nomusini toptatmagani ta’kidlanadi.

Asar yakunida Osim sahnaga chiqadi va Xojazoda bilan yolg‘iz qoladi. Xojazoda Osimni hukumatni bosish kabi qo‘pol kuchga asoslangan fikrlardan qaytaradi. Unga millatlarning najoti va yuksalishi uchun ikki qudrat (ma‘rifat va fazilat) shart ekanini tushuntiradi. Fazilat (axloq) bizda mavjudligini, biroq ma‘rifat (fan/ilm) G‘arbdan olinib tatbiq etilishi kerakligini bildiradi. Xojazoda Osimni o‘qishni tamomlash uchun Berlinga (Yevropaga) borishga ko‘ndiradi. Asar eshikdan tushkunlik bilan kirganlarning kelajakka umid bilan chiqishi bilan yakunlanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari haqida. Behbudiy “Padarkush” pyesasini 1911-yilda yozgan bo‘lsa-da, Chor Rossiyasi senzurasidan ruxsat faqat Tiflisdagi idoradan olingan va asar 1913-yilda Samarqandda nashr

etilgan. Asarning to‘liq nomi “Padarkush yoxud o‘qimagan bolaning holi” shaklidir. Mahmudxo‘ja Behbudiy yozgan “Padarkush” Turkiston modernizatsiya tarixining ilk dramatik asari sifatida ijtimoiy larza keltirib chiqardi. Asar jaholat bir oilani va yakunda bir millatni qanday fojiga yetaklashi mumkinligini ko‘rsatuvchi hayratlanarli “ibratxona”dir.

Behbudiy teatrdan bevosita darsxona sifatida foydalangan; tomoshabinga savodsizlik nafaqat kambag‘allik, balki ijtimoiy rishtalarni yo‘q qiluvchi ofat ekanini ko‘rsatgan. Asar ilm bo‘lmagan joyda hayot ham bo‘lmasligi haqidagi xabar bilan tugaydi.

Asardagi qahramonlar ular vakillik qiladigan ijtimoiy tabaqalarga qarab qurilgan:

Boy: 50 yoshli, boy biroq o‘qishga qarshi bo‘lgan ota.

Toshmurod: Boyning o‘g‘li, 15-17 yoshlarda, o‘qimagan va erka yosh.

Domla: 30-40 yoshlarda, yangi fikrli diniy xizmatchi.

Ziyoli: Yevropa uslubida kiyingan, ruscha o‘qigan, millatchi musulmon.

Xayrullo: Boyning kotibi va xizmatkori, 18-20 yoshlarda.

Tangriqul: Boyning qotili bo‘lgan yosh yigit.

Davlat va Nor: Toshmurodning “yomon xulqli” do‘stlari.

Liza: Rus ayoli (fohisha rolida).

Artun: Arman mayxonachi.

Pristuf: Rus politsiya komissari.

Boyvachcha (Boy xonimi): Boyning rafiqasi, 35-40 yoshlarda (Timur K., 2004, 177-262).

Asar 3 parda va 4 manzaradan iborat. Birinchi pardada voqea Boyning mehmonxonasida sodir bo‘ladi. Boyning o‘g‘li Toshmurod otasidan pul so‘rab ketadi. Uyga kelgan Domla Boyga o‘g‘lini mutlaqo o‘qitishi kerakligini, bu dinda farz ekanini aytadi. Biroq boyligiga ishongan Boy bu nasihatni tinglamaydi va uyqusi kelganini aytadi. Domla ketgach, zamonaviy kiyingan “Ziyoli” keladi. U ham Boyga davlat ishlarida haq-huquqqa ega bo‘lish hamda mavjud imkoniyatlarni saqlab qolish va mustahkamlash uchun o‘g‘liga matematika, geografiya va rus tili kabi zamonaviy fanlarni o‘qitishi zarurligini uqtiradi. Boy bu ogohlantirishlarni ham inobatga olmaydi va uxlashni afzal ko‘radi.

Ikkinchi pardada voqea mayxonada bo‘lib o‘tadi. Toshmurod va do‘stlari (Davlat, Nor va Tangriqul) ichkilik ichishmoqda. Guruh rus fohishasi Lizani chaqirtirmoqchi bo‘ladi. Mayxonachi Artun Liza va faytun haqi uchun naqd 30 manat so‘raydi. Yoshlarning puli yetmagach, Davlat Toshmurodga otasining pulini o‘g‘irlashni taklif qiladi. Toshmurod do‘sti Tangriqul bilan birga otasining sandig‘ini o‘marishga ko‘nadi.

Uchinchi pardada Boyning yotoqxonasida Toshmurod va Tangriqul sandiqni ochishga urinayotganda Boy uygʻonib ketadi va tayoq bilan qarshilik koʻrsatadi. Oʻgʻli Toshmurod otasini ushlab turganida, Tangriqul Boyni pichoqlab oʻldiradi. Pullarni olib qochishadi. Voqea joyiga kelgan Boyning xotini faryod qiladi. Domla kelib ayolga: “Bu badbaxtlik va musibatga sabab, jaholat va nodonlikdir. Beilmlik va tarbiyasizlikdir. Uyingizni nodonlik buzdi. Sizni beilmlik xonavayron qildi. Oʻgʻlingizni beilmlik Sibirga yuboradi.” mazmunida gapiradi.

Toʻrtinchi manzarada yana mayxonadagi sahnada Toshmurod va Tangriqul qonli qoʻllari bilan pulni keltirishadi va Lizani chaqirtirishadi. Maishat boshlanganida rus politsiyasi (Pristuf) bosqin uyushtiradi. Jinoyat qurollari topiladi va yoshlar hibsga olinadi. Sahnaga kirgan Ziyoli tomoshabinlarga yuzlanib, bu fojining sababi “ilmsizlik ve tarbiyasizlik” ekanini, bolalarni oʻqitmaslikning oxiri Sibirga surgun va halokat boʻlishini hayqiradi. Asar rus komissarining “Hayda, turma, marsh!” degan buyrugʻi bilan tugaydi.

“Osim” va “Padarkush” asarlarining qiyosiy tahlili haqida soʻz borganda, Okifning bir avlodni insho etishga boʻlgan intilishi Behbudiyda otalarning eʼtiborsizligi orqali jamiyatni ogohlantirish shakliga aylanadi. Har ikki asar ham “Ota”, “Oʻgʻil” va “Rahnamo” tipologiyalari ustiga qurilgan boʻlsa-da, ularning xabarlarini “ideal” va “anti-qahramon” ziddiyati orqali shakllangan.

Otalar: Koʻsa Imom va Boy

- Koʻsa Imom (Osimda): Anʼanaviy qadriyatlarga sodiq, dindor, biroq jamiyatning buzilganidan va oʻgʻlining (Osim) qattiqqoʻl feʼl-atvoridan shikoyat qiluvchi otadir. Oʻgʻlining “shoʻxliklaridan”, adolatsizlikka qoʻpol kuch bilan aralashishidan xavotirda. Biroq oʻgʻlining axloqidan shubha qilmaydi, faqat uning usullaridan qoʻrqadi. Xojazodaning fikrlariga hurmat bilan qaraydi.

- Boy (Padarkushda): Johil, kibrli va moddiyatparastdir. Domla va Ziyolining “Oʻgʻlingni oʻqit!” degan tavsiyalariga quloq solmaydi. “Oʻgʻil meniki, boylik meniki, sizga nima!” deb boylik oʻgʻlini qutqaradi deb oʻylaydi. Oʻz qoʻli bilan halokatini tayyorlaydi. Diniy amallarni yuzaki bajaradi, biroq ilm va oʻzgarishlarga yopiq.

Oʻgʻillar: Osim va Toshmurod

Ikki asarning eng keskin ziddiyati kelajakni ifodalovchi yoshlarda koʻrinadi.

- Osim: Iymonli, nozik taʼbli biroq adolatsizlikka toqat qila olmaydi. Qimorbozlarni tutadi, mastlarni uradi, mahalla axloqsizligiga jismoniy aralashadi. Oʻqishini tamomlash arafasida, Xojazoda uni Berlinga fan oʻrganishga yuboradi. Otasiga hurmatli, biroq asosiy avtoritet sifatida Xojazodani tinglaydi. Millatning najot umididir. Zero, Akif “Osim avlodi”ni “Chanoqqalʼa shahidlariga” sheʼrida quyidagi misralar orqali tavsiflagan:

“Osimning nasli”, – degandim, chinakam nasl – olmoslar,

Mana, toptatmadi nomusini, endi-da toptay olmaslar.” (Erso‘y, 2022, 353).

- Toshmurod: Erka, o‘qimagan va irodasizdir. Otasidan faqat pul so‘raydi. Yomon do‘stlar bilan yuradi, rus mayxonalarida ichadi va fohishalar bilan vaqt o‘tkazadi. Pulsiz qolgach, do‘stining gijgijlashi bilan o‘z otasini o‘marishga tushadi va otasining qotiliga aylanadi. Jaholat qurboni sifatida qamoq va Sibir surguniga mahkum bo‘ladi.

Rahnamolar: Xojazoda va Ziyoli/Domla

- Xojazoda: Asarda nofaol kuzatuvchi emas, yo‘naltiruvchidir. Osimning qo‘pol kuchini to‘g‘ri kanalga – ilmga va vatanga xizmatga yo‘naltiradi. Sharq fazilati bilan G‘arb ma‘rifati (ilmi) sintezini himoya qiladi.

- Ziyoli va Domla: Boyni ko‘ndirishga urinadilar. Ziyoli qahramoni ruscha biladigan, Yevropa uslubida kiyingan obraz bo‘lib, shu sababli Boy tomonidan yot ko‘riladi. Domla esa diniy dalillar bilan ta‘limning farzligini tushuntiradi. Behbudiy ushbu qahramonlar orqali “Modernizatsiya dindan chiqish emas.” degan xabarni beradi.

Ijtimoiy tanqidlar va mavzular

O‘qimaslik va Jaholat: “Padarkush”da Ziyoli jinoyatdan so‘ng xalqqa: “Ah, haqiqatda Boyni o‘ldirgan va bu yigitlarni azobi abadiyga giriftor qilgan beilmlkdir. Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdir: bevatanlik, darbadarlik, asorati faqru zarurat va xo‘rliklar hamma ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir.” - deya asarning bosh g‘oyasini didaktik ruhda baralla ifoda etadi. Jaholat, Jinoyat va O‘lim.

“Osim”da Xojazoda madrasalar ishdan chiqqanini, xalqning jaholatini tanqid qiladi biroq yechimni “ma‘rifat va fazilat” sintezida ko‘radi. Jaholat = Asorat va Qoloqlik.

Ijtimoiy tanazzul xususida esa “Osim”da qimorbozlar, qora bozorchi va soxta sofiylar tanqid qilinadi. “Padarkush”da ichkilik, arman mayxonachi va rus fohishasi orqali axloqiy tanazzul chiziladi.

XULOSA

Mehmed Okif Erso‘y va Mahmudxo‘ja Behbudiy ayni tarixiy burilish pallasida, turli geografik hududlarda o‘xshash “ma‘rifat da‘vosi”ni ilgari surganlar. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, har ikki mutafakkir ham jamiyatning bardavomligi yoshlarning ta‘lim-tarbiyasi va axloqiy kamolotiga bog‘liq ekanligiga urg‘u berganlar. Biroq, mualliflar yashagan ijtimoiy-siyosiy sharoit va ular ko‘zlagan pedagogik maqsad asarlar finalida yaqqol tafovutni yuzaga keltirgan.

Behbudiyning “Padarkush” asari “Qanday bo‘lmaslik kerak?” degan savolga berilgan fojiali va kishini larzaga soluvchi ogohlantirish xususiyatiga egadir. Mazkur asar ilmsiz qoldirilgan avlodning (Toshmurod timsolida) nafaqat o‘z kelajagini barbod qilishi, balki o‘z ildizlarini (otasini) ham yo‘q qilib yuboradigan

maxluqqa aylanishi mumkinligini namoyon etuvchi zulmatli manzaradir. Behbudiy jaholatning badalini “padarkushlik”, “surgun” va “vatansizlik” ko‘rinishida gavdalandirish orqali Turkiston xalqini g‘aflat uyqusidan uyg‘otishni maqsad qilgan. Bu yerdagi xulosa ochiq-oydindir: agar ma‘rifat bo‘lmasa, oqibat halokatdir.

Buning aksi o‘laroq, Mehmet Okifning “Osim” asari “Qanday bo‘lish kerak?” degan savolga berilgan idealistik dastur va xushxabardir. Okif mavjud muammolarni aniqlash bilan cheklanib qolmay, yechim sifatida “ma‘rifat va fazilat” uyg‘unligini taqdim etgan. Osim xarakteri jismoniy kuchni emas – ilmni, ma‘naviy tubanlashuvni emas – axloqni, umidsizlikni emas – qat‘iyatni tanlagan holda, millatning mash‘um toleini yengishga qodir irodani namoyon etadi. Uning Berlinga o‘qishga yuborilishi shunchaki ta‘lim safari emas, balki G‘arb fanini o‘zlashtirib, uni milliy zaminga payvandlash loyihasidir.

Muxtasar aytganda, Toshmurod – jaholat va e‘tiborsizlik hosilasi bo‘lmish vayrona, Osim esa ongli ta‘lim va‘da qilgan nurli bunyodkorlik timsolidir. Ulardan biri jaholat jamiyatni qanday “o‘ldirishini” ko‘rsatsa, ikkinchisi ta‘lim millatni qay tarzda “tiriltirishi” mumkinligini hikoya qiladi. Ikkala asar birgalikda o‘qilganda, Turk dunyosining najot yo‘lini bir jumla bilan shunday ifodalash mumkin: Toshmurod bo‘lmaslik uchun, Osim bo‘lmoq kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Doğan, D. Mehmet (haz.). Âsım’ı Âkifçe Okumak. – Ankara: Türkiye Yazarlar Birliği Yayınları, 2014. – 320 s.
2. Gökçek, Fazıl. Mehmet Akif Ersoy // TEİS: Türk Edebiyatı İsimler Sözlüğü. – Ankara: Ahmet Yesevi Üniversitesi, 2018. – URL: <https://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/ersoy-mehmet-akif> (murojaat qilingan sana: 18.02.2026).
3. Ersoy, Mehmed Âkif. Safahat / tarj. Miraziz A‘zam. – Toshkent: TİKA, 2022. – 624 b.
4. Güler, Muhammed İkbâl. Âsım’ı Âkifçe Okumak // Mehmed Âkif Ersoy ve İstiklâl Marşı’mız. – Ankara: T.C. Cumhurbaşkanlığı Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları, 2021. – S. 215–230.
5. Karakaş, Şuayip. Türkistan Cedit Hareketinin Öncülerinden Müftü Mahmudhoca Behbûdî Efendi // Türkiyat Araştırmaları Dergisi. – 2003. – №13. – S. 131–176.
6. Kocaoğlu, Timur. Türkistan’da Türkçe ilk tiyatro eseri: Mahmud Hoca Behbudi’nin “Pederküş” (Baba Katili) piyesi – 1913 // Türklük Araştırmaları Dergisi. – İstanbul: Marmara Üniversitesi, 2004. – №15. – S. 177–262.

REFERENCES

1. Doğan, D. M. (Ed.). (2014). *Âsım'ı Âkifçe okumak*[Reading Âsım from Âkif's perspective]. Yazar Yayınları.
2. Erso'y, M. O. (2022). *Safahot*[Safahat] (M. A'zam, Trans.). TİKA.
3. Gökçek, F. (2018). Mehmet Akif Ersoy. In *TEİS Türk edebiyatı isimler sözlüğü*[TEİS Dictionary of Turkish literature names]. Ahmet Yesevi University. <https://teis.yesevi.edu.tr/madde-detay/ersoy-mehmet-akif>
4. Güler, M. İ. (2021). Âsım'ı Âkifçe okumak [Reading Âsım from Âkif's perspective]. In *Mehmed Âkif Ersoy ve İstiklal Marşı'mız*[Mehmed Âkif Ersoy and our National Anthem]. T.C. Cumhurbaşkanlığı Diyanet İşleri Başkanlığı.
5. Karakaş, Ş. (2003). Türkistan Cedit hareketinin öncülerinden Müftü Mahmudhoca Behbûdî Efendi [Mufti Mahmudhoca Behbûdî Efendi, one of the pioneers of the Turkestan Jadid movement]. *Türkiyat Araştırmaları Dergisi*, 13, 131–176.
6. Kocaoğlu, T. (2004). Türkistan'da Türkçe ilk tiyatro eseri: Mahmud Hoca Behbudi'nin “Pederküş” piyesi-1913 [The first Turkic theatrical work in Turkestan: Mahmud Hoca Behbudi's play “Pederküş”-1913]. *Türklük Araştırmaları Dergisi*, 15, 177–262.